

TOHIR MALIKNING DINIY-FALSAFIY RUHDAGI RISOLALARI BADIYATI (“ODAMIYLIK MULKI” ASARI MISOLIDA)

O‘g‘iloy Ahmadova
Samarqand davlat universiteti

Shavkat Hasanov
Ilmiy rahbar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti yirik namoyondasi Tohir Malik nasri badiiy xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari, tildan foydalanish mahorati va yozuvchi asarlari lingvopoetik xususiyatlari adibning “Odamiylik mulki” asari asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Tohir Malik, So‘fi Olloyor, ishq, badiylik, mahorat, uslub, din, risola.*

ABSTRACT

In this article, it will be discussed that, the artistic features of the prose of Tohir Malik, the great representative of Uzbek literature, their unique aspects, the skill of using the language and linguopoetic features of the writer’s works are considered based on the writer’s work “Odamiylik mulki” (“Humanity’s property”).

Key words: *Tahir Malik, Sufi Olloyor, love, artistry, skill, style, religion, pamphlet.*

Badiiy adabiyot maydonida o‘z uslubini, o‘z yo‘lini yaratib, o‘zidan ulkan ijodiy meros qoldirgan va qoldirayotgan ijodkorlarimiz bir talay. Shunday yozuvchilarimizdan biri mahoratli ijodkor Tohir Malikdir. Adib tog‘asi hamda ustozи bo‘lmish yozuvchi Mirzakalon Ismoiliyining “boshqalar yurgan yo‘ldan yurma, o‘z yo‘lingni top” degan nasihatiga bir umr amal qilib keldi. Dastlab, o‘zbek adabiyotida qo‘l urilmagan yo‘nalish-fantastik asarlar yaratgan bo‘lsa, keyinchalik o‘zbek adabiyotining oqsab kelayotgan yo‘nalishi bo‘lmish detektiv uslubda yozilgan asarlari bilan kitobxonlarni xursand qildi. Yozuvchining oxirgi yillarda yaratgan diniy aqidalar asosiga qurilgan bir qancha asarlari ham Tohir Malikka xos individual mohirlik bilan yozildi. Ushbu maqolada diniy-falsafiy ruhda yaratilgan “Odamiylik mulki” asarida yozuvchining badiiy yondashuvi hamda tildan foydalanish mahorati haqida so‘z yuritiladi. Avvalombor, yuqorida nomi tilga olingen asar haqida qisqacha adabiy tahlil o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Tohir Malikning ushbu kitobi “Axloq kitobi” deb ham

nomlanib, ma’naviyat va tarbiya masalalariga bag‘ishlangan. Asar uch fasldan iborat bo‘lib, ular quyidagicha nomlanadi: “Ishq”, “Baxt” va “Saodat”. Ushbu kitobda ko‘pgina badiiy asarlardan farqli ravishda muayyan voqeа-hodisalar aks etmaydi, balki inson kamolga erishishi uchun, husni xulq sohibi bo‘lishi uchun xizmat qiladigan fazilatlar haqida so‘z yuritiladi. Yozuvchining o‘zi bu haqida shunday deydi: “... odob bobida birodarlarimizga nafi tegar, degan umid bilan “Mehmon tuyg‘ular” nomida bir kitobchaga tartib berdik. So‘ng uni to‘ldirib, “Iymonlashish umidi” degan nomda e’tiborlaringizga havola etdik. Keyin esa farzandlar tarbiyasida foydali bo‘lib qolar, degan maqsadda bir risola yozib unga “Jinoyatning uzun yo‘li” deb nom berdik. Bu yo‘nalishdagi urinishlarimizni endi mazkur odob risolasi nihoyasiga yetkazar, Insha Alloh”¹

Yozuvchining ta’biri bilan aytilganidek ushbu kitob hayotiy-maishiy voqeа-hodisalar aks etgan badiiy asar emas, balki “odobga oid risoladir”, ammo badiiylikning go‘zal ifodasi asarga shunday singdirilganki, asar qadimda yozilgan pand-nasihat yo‘nalishidagi kitoblarni eslatadi. O‘tmishda ham badiiy asarlar bilan bir qatorda ko‘pgina shunday risolalar bitilganligini, har qanday badiiy asar kishini ruhan, ma’nan yuksaltirishga xizmat qilishi kerakligini, chunki “Adabiyot-odoblar to‘plami” ekanligini yozuvchi kitob muqaddimasida aytib o‘tadi. Muqaddimaning o‘zidayoq yozuvchi bir qancha rivoyatlardan, hadis hamda Qur’oni Karim oyatlaridan keltirib, Alisher Navoiy, Abu Homid G‘azzoliy, So‘fi Olloyor, Yusuf Xos Hojibdek sharq adabiyotining ustunlari, shu bilan bir qatorda din peshvolari bo‘lgan buyuk zotlar hamda ularning ijodiga bir qadar to‘xtalib o‘tadi. Muqaddimadan so‘ng esa har qanday inson uchun eng muhim bo‘lgan me’zon-tarbiya xususiga bag‘ishlangan bob kelib, bu bob “Yo saodat- yo falokat...” deya nomlanadi. Yozuvchi bu bobda farzand tarbiyasi ota-onas uchun qanchalar muhim omil ekanligini alloma Abdulla Avloniyning hikmatlari yordamida o‘quvchiga singdirar ekan, yurtimiz tarixida bo‘lib o‘tgan ba’zi holatlarga, xususan, buyuk sarkarda Amir Temurdek shaxs barpo qilgan ulkan davlatning yemirilishidek siyosiy jarayonga ham aynan tarbiya masalasi, shahzodalarning yaxshi tarbiya olmaganligini sabab qilib keltiradi. Bu bilan tarbiyaning inson hayotida qanchalar muhim o‘ringa egaligini o‘quvchiga yanada ishonchli qilib ko‘rsata olgan, deyish mumkin. Shuningdek, Tohir Malik o‘ziga xos muloyimlik bilan yozishiga qaramay, ushbu bobga Abdurauf Fitratning “...biz, turkistonliklar bolalarimizdan ko‘ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz...” kabi so‘zlarini “bir oz keskinroq, hatto qo‘polroq tuyulishi mumkin bo‘lgan bayonlar” deya kiritishi o‘z uslubidan og‘ishmagan holda qattiq kesatish yo‘li bilan ekspressivlikni oshirib bergen. Yozuvchi har bir keltirayotgan so‘zi o‘quvchi ko‘z

¹ “Odamiylik mulki”, T. Malik, T:-2021 4-bet

o‘ngida o‘z isbotini yana bir bor topishi uchun hadislar, oyatlar, buyuk yozuvchi, allomalar ijodidan na’muna keltirish yo‘lidan boradi. Masalan, “Ikki musulmon o‘zaro uchrashganda Alloh, albatta, ularni bir-biridan foydalantiradi” kabi bir necha hadislar;

“Quloqdan dilingga gar kirmasa nur

Sichqon kavagidan ne farqi bo‘lur” ;

(Abdurahmon Jomiy)

“O‘zimdek xastalar bo‘lg‘aymu deb shod,

Nasoyihdan ham andak ayladim yod”.

(So‘fi Olloyor)

kabi misralardan o‘rinli foydalanadi.

Kitobning keyingi bobি “Sevgan suyganiga etar itoat” deya nomlanib, bobning she’riy yo‘l bilan nomlanishi ham asar badiiyatini yanada oshirib berishga xizmat qiladi. Mazkur bob ishq-muhabbat ta’rifi, uning xillari, qalbdagi jilosи bayonidan iborat bo‘lib, biz tasavvuf ta’limotidan bir qadar bahramand bo‘lib, haqiqiy ishq-Oollohga bo‘lgan muhabbat haqida o‘rganamiz. Yozuvchi ushbu bobda hazrat Navoiy, Bobur, Fuzuliyarning tasavvuf ruhidagi baytlarini bizga odmiyonan qilib sharplash bilan bir qatorda, o‘scha mashhur hikoyat-Shayx San’on hikoyatini ham kiritib, o‘quvchiga hikoyatdagи asl mohiyatni atroflicha tushuntirib o‘tadi. Shuningdek, ushbu bobda hazrati shayx Harisi Muhosibiy, hazrati Yaxyo Bin Muoz, hazrati shayx Abu Said Xarros, turk shoiri hazrati Yunus Emro kabi bir necha ulug‘ zotlarning ishq borasidagi mulohazalarini keltirib, oshiqlar hamda haqiqiy ishq tushunchalarini o‘quvchiga aniqroq anglatishga urinadi. Qo‘srimcha tarzda So‘fi Olloyorning “Sabotul ojiziyn” asaridan bir necha baytlarni ham adabiyotshunos, ham yozuvchi-ijodkor sifatida izohlab, ommaga taqdim etadi. Risolaning keying bobи ota-onan va farzand munosabatlariga doir axloq hamda muammolar haqida bo‘lib, “Hurmati volidayn-farzi ayn” nomi bilan keltiriladi. Sarlavhadan ma’lumki, bu bobda ham Qur’on oyatlari, hadislar, rivoyatlar hamda allomalarning asarlaridan, hikmatlaridan parchalar keltirilib yuqoridagi mavzuga batafsил to‘xtalib o‘tiladi. Tabiiyki, asarning barcha boblari yuzasidan fikr yuritish katta bir ilmiy mehnatni talab qiladi. Shu sababli, mohiyatni tushunish uchun yetarli bo‘lgan yuqoridagi qismlar bilangina cheklangan holda, kitobga adabiy tahlil nuqtayi nazaridan yondashamiz. Mumtoz adabiyot o‘zagini tashkil qilgan ushbu masalalar bir necha vaqt adabiyotdan yiroqlashgani hech kimga sir emas. Ushbu risoladagi kabi yondashuv esa zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyondalaridan birinchilardan bo‘lib Tohir Malik ijodida ko‘rindi. Adib kitoblari diniy manba bo‘lishi bilan bir qatorda, badiiy asar hamdir.

Bunday deyishimizga sabab kitobda ijodkor o‘zi va zamondoshlari hayotida yuz bergen voqealarni ham kiritib, bularga o‘z mulohazalarini ham bildirib o‘tadi. Asl diniy manbalardagi kabi ilmiylik darajasi yuqori emasligini ushbu kitob badiiy asar ekanligi bilan izohlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, kitobga hayotiy voqealar asosidagi badiiy hikoyatlardan, badiiy asar parchalaridan, she’riy asarlardan misollar kiritilishi hamda asar tilining o‘ziga xosligi, sarlavhalardagi she’riy ohang, adabiy tilning badiylashtirilgan ko‘rinishi asar badiiyatini oshirishga xizmat qilgan, desak adashmagan bo‘lamiz. Kitob mutolaasi jarayonida o‘quvchi o‘z diniy salohiyatini, bilimlarini oshirish bilan bir qatorda badiiy adabiyotning yuksak na’munasidan ham bahramand bo‘ladi. O‘zbek adabiy muhitida o‘ziga mustahkam o‘rin tayyorlagan ushbu risola bir necha davr avlodlarining ma’naviyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shubxasizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Glimpses of Religion in English Literature”. Shahzad Latif Chaudhary. American International Journal of Contemporary Research. Vol.3 No. 12; December 2013.
2. “Literature: Literature And Religion”. Article of the website <http://encyclopedia.com>
3. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. Hotam Umurov, “Xalq me’rosi”, Toshkent, 2004.
4. “Adabiyotshunoslik nazariyasi”. A. Ulug‘ov, “G‘afur G‘ulom”, Toshkent, 2017.
5. “Odamiylik mulki”, Tohir Malik, Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi, 2021.